

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 33:336I(575.1)

OLLOMOVA RA'NO ERKINOVNA

O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlar o'rtasidagi
moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari

5A231101 – “Jahon iqtisodiyoti (mintaqa va faoliyat turlari bo'yicha)”
mutaxassisligi bo'yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
i.f.n. dos. F.N.Nasridinnov

Toshkent – 2021

ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertasiyasida O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining nazariy va uslubiy asoslari ko'rsatib berilgan. Xususan xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va ahamiyati, xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilishda investision muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatda xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'larini jalb qilishdagi so'ngi yillar tendesiyasi tahlil qilingan.

ANNOTATION

The dissertation work contains the theoretical part where the author studied cooperation between Uzbekistan and international financial institutions, examined the importance of projects financed by international financial institutions in economic development, analyzed the main indicators of investment policy and determined the stages of its formation and improvement in Uzbekistan, the main factors influencing the attraction of international financial institutions were analyzed, as well as the latest trends in the sphere of their attraction to the economy of Uzbekistan. Moreover, it is studied the advanced experience of increasing the attractiveness of the investment climate in attraction of international financial institutions and using of them in Uzbekistan.

Magistrlik dissertasiya ishi "Jahon iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki

himoyadan o'tgan. 1 - sonli bayonnoma « 14 » 06 2021 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dos i.f.n. dos. F.N.Nasridinnov




imzo

21.06.21

sana

Magistr: R.E.Ollomova



imzo


21.06.21

sana

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Jahon iqtisodiyoti" kafedrası

mudiri dos. N.S.Ismailova



« 21 » 06 2021 yil

Himoya 2021 yil « 22 » 06 soat 14.00 da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING UMUMNAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1 Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi.....	11
1.2 Xalqaro moliya tashkilotlarining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari.....	13
1.3 Jahon banki guruhi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar faoliyati.....	18
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	32
II BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIGI HOLATI TAHLILI.....	33
2.1 Xalqaro moliya tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida hamkorlikning holati tahlili.....	33
2.2. Xalqaro moliya tashkilotlaridan mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan kreditlar tahlili.....	49
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	61
III BOB XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI IQTISODIY MOLIVAVIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	63
3.1. O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqboldagi hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari.....	63
3.2. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarni yaxshilash orqali investitsion loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari.....	71
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	77
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zaruriy bo'lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yo'llari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda investitsion muhitning tobora yaxshilanib borayotganligi hamda barqaror bank tizimining yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko'lami yanada kengayib borayotganligi, bu holat o'z navbatida xalqaro moliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari yanada rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarining rivojlanayotganligini ular tomonidan iqtisodiyotimizga qator yirik loyihalarga mablag'lar amalga oshirayotganligida ko'rish mumkin. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy etish bilan bir qatorda mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda. Xususan, bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Biz o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilishni bugungi kun talablari darajasida tashkil etamiz."¹ Bugungi kunda mamlakatimiz va xalqaro moliya tashkilotlarining amaliy aloqalariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va shu kabi jahondagi yirik xalqaro moliya tashkilotlar bilan juda izchil va faol amaliy ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham o'zaro mustahkam iqtisodiy aloqalarni izchil davom ettirmoqdalar.

Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida tashqi iqtisodiy siyosatni rivojlantirish, huquqiy me'yoriy bazani takomillashtirish bo'yicha amalga

¹ Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent: O'zbekiston, 2016 – 27 b.